

2017-YIL – XALQ BILAN MULOQOT VA INSON MANFAATLARI YILI



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:50 (67111)
2016-yil
12-dekabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

OCHIQ DARS: o'quvchilarning huquqiy bilimlari boyitildi



**OBUNAGA
SHOSHIL, O'RTOQ!**

«Tong yulduzi» gazetasi,
Erur bilim xazinasi.
Unda yangrar kuy-u qo'shiq,
Ona Vatan madhin jo'shib.

Har bir so'zi dur-u gavhar,
Hikmatlari misoli zar.
Bo'lma aslo undan yiroq,
Obunaga shoshil, o'rtoq!

Mahfuzaxon G'OXIXONOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq
tumanidagi 3-IDUM 7-«V» sinf
o'quvchisi

(3-bet)



**Aziz o'quvchilar!
«TONG YULDUZI»**

**gazetasiga
2017-YIL UCHUN OBUNA
mavsumi davom etmoqda!**

Siz maktab kutubxonasi yoki
uyingizga yaqin aloqa bo'limlarida
obuna bo'lishingiz mumkin.

Nashr ko'rsatkichi - 198

INSON MANFAATI HAR NARSADAN USTUN

Aziz o'quvchilar!

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 24 yilligi munosabati bilan 7-dekabr kuni «O'zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ma'ruza qildi.

Ta'kidlandiki, 1992-yil 8-dekabrda mustaqil O'zbekistonimiz Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida muhim tarixiy voqea bo'lgani, Konstitutsiyaning yaratilishi va hayotimizga tatbiq etilishida zamonamizning buyuk davlat arbobi, ulug' yo'lbo'shchimiz, muhtaram Islom Karimovning xizmati beqiyos ekani, aynan Birinchi Prezidentimizning sa'y-harakatlari bilan Konstitutsiyamizda «Inson va uning qadr-qimmatini» degan ulug' tushuncha markaziy o'ringa qo'yilgani yana bir bor esga olindi.

Shuningdek, davlat rahbari kirib kelayotgan 2017-yilni yurtimizda «Xalq bilan muloqot va inson manfaatli yili» deb e'lon qilishni taklif etdi va eng dolzarb va ustun

vor vazifalarga atroflicha to'xtalib o'tdi. Jumladan, siz aziz o'g'il-qizlar



uchun zarur sharoitlarni yaratish, yangi-yangi ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va sport maskanlarini barpo etish, ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz, deya ta'kidladi O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat

Mirziyoyev. Ayniqsa, Abdurauf Fitrat bobomizning yosh avlod tarbiyasi haqidagi «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq», degan fikrlariga har birimiz, jumladan, endi hayotga kirib kelayotgan yosh o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini juda-juda istardim, dedi davlat rahbari.

Bugun keskin va tahlilali sharoitda barchamiz yanada ogoh va hushyor bo'lishimiz nihoyatda muhimligi, bolalarimizni bironlarning qo'lga berib qo'ymasdan, o'zimiz tarbiyalashimiz lozimligi aytib o'tildi.

Bir so'z bilan aytganda, kirib kelayotgan yangi yilda inson manfaati har narsadan ulug', degan ezgu g'oyani izchil davom ettirish, hayotimizni yanada obod va farovon etish yo'lida yana bir ulkan qadam bo'lishi ta'kidlandi.

VATANNI SEVMOQ - OLIY BAXT

Yurtimiz mustaqillikka erishganiga 25 yil to'ldi. O'tgan yillar davomida mamlakatimiz barcha sohalarida katta yutuqlarga erishdi.

Yurtimizda olib borilayotgan har bir ezgu sa'y-harakat «Islohot islohot uchun emas, avvalo, inson manfaatlari uchun» degan ulug'vor maqsadga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shu o'rinda yurtimiz sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni alohida ta'kidlash lozim. «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida respublikamiz bo'ylab «Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasin» shiori ostida salomatlik haftaliklari o'tkazildi.

Charos BO'RONOVA,
Buxoro viloyati, Vobkent tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

ISTE'DODLAR BELLASHUVI

Buyuk allomalar dunyoga kelgan muqaddas zamin-da kamol topayotgan yoshlarimiz bugunga kelib fan, ta'lim, san'at va madaniyat yo'nalishlarida ko'plab yutuqlarga erishmoqda. Joylarda tashkillashtirilayotgan turli ko'rik-tanlovlar yangi iqtidor egalari kashf etishda muhim omil bo'layotir.

O'tgan davr mobaynida Toshkent viloyatidan 17 nafar qizning Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lishi viloyatlik yosh iste'dod egalari yanada ruhlantiradi. Bu yilgi tanlovning Toshkent viloyati bosqichida adabiyot, fan, ta'lim, san'at va madaniyat yo'nalishlarida 134 nafar ishtirokchi o'zaro bellashdi. Har bir yo'nalish bo'yicha ijodiy ishlar, chiqishlar va tanlovga taqdim etilgan materiallar hakamlar hay'ati tomonidan munosib baholandi.

Shuningdek, Farg'onada ham tanlovning viloyat bosqichida 100 nafar vadiylik qizlar o'z iste'dodini namoyish etdi.

Nurbek QIDIRALIYEV



TANLOV G'OLIBLARINI QUTLAYMIZ

Qadrlil o'quvchilar, barchangizga yaxshi ma'lumki, «Sog'lom ona va bola yili» munosabati bilan gazetamizning 2016-yil 7-mart (№ 10) sonida «Sog'lom bola - boy bola» tanlovini e'lon qilgan edik. O'tgan vaqt mobaynida Siz aziz o'quvchilardan ko'plab xatlar oldik. Quvonarli jihati, maktublarda ishtirokchilar o'zlarining shu mavzuga doir ko'ngil bitiklarini maqola, she'r, rasmlar orqali namoyon etishga harakat qilishdi. O'z navbatida, biz ham har bir chizgini odilona saralashga harakat qildik.

Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 2-«B» sinf o'quvchisi, jaji muxlisimiz E'zoza ILHOMOVAning husnixatda yo'llagan maktubi yuqori bahoga loyiq topildi.

Tanlovga eng ko'p xat yo'llagan faol o'quvchilarimiz safida Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 31-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi Mohidil G'AFUROVA va Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 12-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi Sitara NAPASOVAning borligi quvonarli.

She'r yo'nalishida samarali ijod qilgan tengdoshlaringiz qatorida Sirdaryo tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi Gulbonu SAMATOVAning nomini aytib o'tish joiz.

Shuningdek, Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi 20-umumta'lim maktabining o'quvchilari ham tanlovda faol qatnashishdi. Jumladan, 7-sinf o'quvchilaridan Maryamjon RAJABOVA, Saodatxon KARIMBERDIYEVAlarning maqola, she'r va chizgan rasmlari e'tiborimizni o'ziga tortdi.

Quyida sog'lom bo'lish borasida o'zlarining qimmatli fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashgan o'quvchilar ro'y-xatini keltiramiz:

Zuhra MAMATOVA - Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi;

Oyatullo HIDOYATULLAYEV - Farg'ona tumanidagi 8-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi;
Laylo ESONMURODOVA - Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 5-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi.

Buxoro viloyatidan:
Elshod ERKINOV - Shofirkon tumanidagi 48-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi;
Parvina USMONOVA - Buxoro shahridagi 26-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi.

Navoiy viloyatidan:
Muxlisa QAMBAROVA - Nurota tumanidagi 26-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi.

Jizzax viloyatidan:
Mohinur SHOHIMARDONOVA - Jizzax tumanidagi 38-umumta'lim maktabi o'quvchisi;
Soliha MURTAZOQULOVA - Jizzax tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 7-«V» sinf o'quvchisi.

Aziz o'quvchilar, bugun shuni iftixor bilan aytishimiz kerakki, tanlovda ishtirok etishingizning o'zi katta muvaffaqiyat. Navbatdagi tanlovlarda ham faol qatnashasiz, degan umiddamiz.

TAHRIRIYAT



Mamlakatimizda fidoyi ustozlar juda ko'p. Ular tashabbusi bilan o'tkazilayotgan tadbirlarda nafaqat o'quvchilar, balki ota-onalar va boshqa mehmonlar ham olam-olam zavq oladilar.

OCHIQ DARS: o'quvchilarning huquqiy bilimlari boyitildi

Poytaxtimizdagi 300-IDUM bu borada ta'lim maskanlarimizga ibrat bo'lib kelmoqda. Tajribali pedagog, 3-«E» sinf rahbari Lola Azimova navbatdagi ochiq darsiga taklif etganini eshitib, rostdanam xursand bo'ldik. Chunki ustozning ko'plab tadbirlarida ishtirok etib, har gal o'zgacha taassurot bilan qaytganimiz. Bu galgi odobnoma ochiq darsi «Barcha huquq bolalarga» mavzusida tashkil etildi.

Sinfdagi o'ttiz nafar o'quvchi «Hukm», «Qonun», «Farmon» nomi ostida uch guruhga bo'linib, o'zlarining baxtimiz qomusiga doir bilimlarini namoyish etdilar. Tadbir boshida o'quvchilar o'z guruhlarining nomi va uning mazmun-mohiyati haqida ma'lumot berishdi. Qonun ustuvorligi haqidagi sahna ko'rinishlari, «She'riy topishmoq»lar va «Teskari test» savollariga bolalarning zukkolik bilan bergan javoblari tomoshabinlarga o'zgacha zavq bag'ishladi.

Nukusdanmi, Termizdan, Toshkent yoki buxorolik. Butun hududimizda – Yagona fuqarolik.

O'quvchilar Konstitutsiyamizning 21-moddasi mazmun-mohiyatini ifodalovchi bu kabi she'riy satrlarni zavq, o'ziga xos g'urur bilan o'qishlarini kuzatish nihoyatda maroqli edi. Asosiysi esa, adolat mezonini bo'lgan qonunlarimiz bilimdon o'quvchilar sa'y-harakati tufayli ko'ngillarga yana bir bor muhrlandi.

Yusuf ABDULLAYEV

«MEN – YOSH VATANPARVAR» TANLOVIGA

ORZULARIM BIR DUNYO

Men bo'sh vaqtlarimda rasm chizishga, to'quvchilikka, kitob o'qishga qiziqaman. Ba'zida she'r va hikoyalar mashq qilib turaman.

Inson bu dunyoga kelar ekan, Vatanni ona kabi sevadi va ardoqlaydi. Biz yoshlar ham yurtga bo'lgan mehr-u muhabbatimizni, sadoqatimizni o'z bilim va iqtidorimiz bilan namoyon qilishimiz kerak. Vatandushlarga aytar so'zim: bir kun kelib, tug'ilib o'sgan tuprog'ingizga zor bo'lib, xorlika yuz tutasiz. Biz bundan to'g'ri xulosa chiqarmog'imiz lozim.

Kelajakda ustozim va onajonimga o'xshagan o'qituvchi bo'lib, Vatanim uchun xizmat qilaman.

Dilnoza OZODOVA,
Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi
40-umumta'lim maktabining 4-«D» sinf o'quvchisi

VATANPARVAR

Tong otadi, kun botar,
Doim ko'ngil to'q.
Bizning ozod yurtimizda,
Xavf-u xatar yo'q.

Sarhadlarimiz tinchdir,
Chegarachilar hushyor.
Ular Vatanga sodiq,
Yurakda mehri bisyor.

Men ham o'sib-ulg'ayib,
Armiyaga boraman.
O'z yigitlik burchimni,
Ado etib kelaman.

O'lmasbek ABDURAHMONOV



YOSH CHEGARACHI

Men yosh harbiy bo'laman,
O'qishga intilaman.
Besh olaman maktabda,
Erishaman maqsadga.

Katta bo'lsam, albatta,
Chegarachi bo'laman.
Vatanimga hamisha,
Sodiq bo'lib qolaman.

Sanjarbek ANVAROV

**O'qon shahridagi
33-umumta'lim maktabi
o'quvchilari**

IQTIDORIMIZ – IQBOLIMIZ

Yurtimizda yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. «Kamalak» yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivali ham ko'plab iqtidor egalarini kashf etmoqda.

Bu yilgi tanlovning Toshkent shahar bosqichi O'zbekiston davlat konservatoriyasida bo'lib o'tdi. Unda jonli ijro, raqs, milliy va zamonaviy cholg'uchilik, tasviriy va amaliy san'at, haykaltaroshlik, nazm va nasr yo'nalishlari bo'yicha 750 nafar o'quvchi o'z iste'dodini namoyish etdi. Ular orasida men ham nazm va nasr yo'nalishi bo'yicha qatnashib, sertifikat bilan taqdirlandim.

Muslimaxon NUSRATULLAYEVA,
poytaxtimizning
Yakkasaroy tumanidagi
127-umumta'lim
maktabining 5-«B» sinf
o'quvchisi

G'URURIMSAN, QOMUSIM!

Shu kunlarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligi joylarda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 216-umumta'lim maktabida ham bo'lib o'tdi.

Saodat Berdimurodova rahbarlik qilayotgan, salkam ming nafar o'quvchi tahsil olayotgan ta'lim maskanida 65 nafar o'qituvchi faoliyat yuritadi.

Tarix fani o'qituvchisi Lobar Husanova tomonidan tashkillashtirilgan anjumanda asosan 5-«A» sinf o'quvchilari qatnashdi. 9-«A» sinf o'quvchilaridan Iroda Ubaydullayeva va Bonu Rasuljonova boshlovchilik qilgan tadbirida o'quvchilar Baxtimiz Qomusida yoritil-

gan haq-huquqlarimizni puxta o'rgan-ganliklarini namoyish etishdi.

Mustaqillik, O'zbekiston, bayroq, gerb, tinchlik haqidagi she'rlar ifodali ijro etildi. Xitoy, yapon, rus, qirg'iz, qozoq, gruzin xalqlari raqslari mohirona ijro etildi. Ayniqsa, 6-«A» sinf o'quvchisi Arofat Sobirjonova ijrosidagi «Munojot», 7-«A» sinf o'quvchisi Akbar Isroilovning gruzincha raqslari tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi. Dilnoza Shodmonxo'jayeva rahbarligidagi 8-«A» sinf o'quvchilari Konstitutsiya moddalarini bilan bog'liq uchta sahna ko'rinishini mohirona namoyish etishdi.

Tadbir davomida maktab hayoti bilan yaqindan tanishdik. Maskanda bilimdon o'quvchilar ko'pchilikni tashkil etar ekan. O'tgan o'quv yilida 9-«A» sinf o'quvchisi

Habiba Yodgorova tasviriy san'at bo'yicha o'tkazilgan fan olimpiadasida respublikada 1-o'rinni olib, ustoz Mehron Mirzayevaning ishonchini oqladi. Shuningdek, «Bilimlar bel-lashuvi»ning tuman bosqichida 5-«A» sinf o'quvchilaridan Kamola Komiljonova ona tili, Temur Sunnatboyev matematika, Mahliyo Alimova rus tili fanlaridan, Muslima Mirzaboyeva esa husnixatdan faxrli o'rinni qo'lga kiritishdi.

Tadbirga taklif etilgan mehmonlar orasida nuroniy onaxon diqqatimizni o'ziga tortdi. U kishi mazkur maktabda boshlang'ich sinflarga 40 yil dars bergan mehnat faxriysi Gulnora aya Adolbekova bo'lib, bugungi tadbir ishtirokchilarining ilk ustozlari ekanlar.

Imoratning poydevori mustahkam bo'lganidek, boshlang'ich sinfda olingan puxta bilim keyinchalik ham o'z samarasini berishiga ishonch hosil qilib, maktabdan iliq taassurotlar bilan qaytdik.

**D. HOTAMOVA,
J. ABDULLAYEV**



Bola-lik dunyosi beg'ubor. Uni xuddi bahorga qiyoslash mumkin. Kichkintoylarning tasavvur olamiga nazar tashlar ekansiz, ularning noyob iste'dod sohibi ekanligiga guvoh bo'lasiz.

Beg'ubor Bolalik

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining beg'ubor kulgusi va quvonchlarini ko'rib, beixtiyor bolalikka qaytgini keladi. Jizzax viloyati, Armasoy tumanidagi «Navro'z» maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari o'rtasida «Ertaklar kelajakka yetaklar» mavzusida tadbir bo'lib o'tdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlarga hamohang tarzda tarbiyalashdan iboratdir.

Tadbirda bolalar turli xil matolar, yelim idishlar va qog'ozlardan ertak qahramonlarini yasashdi.

Darhaqiqat, yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh, deb bejizga aytilmagan. Bu kabi maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim-tarbiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, ertamiz egalari-ning sog'lom va barkamol voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Rustam NURMATOV

VOBKENTDAGI ENG QUVNOQ MASKAN

Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazidan har kuni o'quvchilarning quvnoq ovozi eshilib turadi. Iqtidorli yoshlarning bo'sh vaqtlariga mazmun bag'ishlayotgan ushbu maskanga Rohat opa Hayitova rahbarlik qiladi. Markaz faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida Rohat opani suhbatga chorladik.

— O'quv yili davomida to'garaklarimiz turli tadbirlar asosida ish boshladi. Markazimizda «Badiiy ijodiyot», «Texnik ijodkorlik», «O'lkashunoslik» va «Ekologiya» yo'nalishlari faoliyat olib boradi. To'garaklarga qatnayotgan o'quvchilarning yutuqlari tayaygina. Ayniqsa, «Yosh hunarmand» tanlovida «Yog'och o'ymakorlik» yo'nalishi ishtirokchisi Nozimjon Razzoqov, «Biz buyuk yurt farzandlarimiz» shiori ostida bo'lib o'tgan Respublika tanlovida «Qalam tasvir» yo'nalishida ishtirok etgan 37-umumta'lim maktabi o'quvchisi Umidjon Xursandov va «Rang tasvir» yo'nalishi qatnashchisi Malik Abdurahmonov 1-o'rinni egalladilar. Bu borada qizlarimiz ham juda faol. «Baxtli bolalik» festivalida Shoista Umidova 2-o'ringa sazovor bo'ldi. Shuningdek, respublika miqyosida tashkil etilgan bellashuvlarda ham o'quvchilarimiz juda faol. «Yosh ixtirochi» ko'rik-tanlovida 8-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Dilshodjon Fayzullayev II darajali diplom bilan, «Chimyon sadosi» festivalida 28-umumta'lim maktabi jamoasi II darajali diplom bilan taqdirlandi.

Bolalarning har bir yutug'idan faxrlanib, g'ururlanib so'zlayotgan Rohat opaning fikrlarini tinglarkanmiz, Vobkentdagi «Barkamol avlod» markaziga quvnoqlar maskani, deb ta'rif berishda adashmaganimizga amin bo'ldik.

Ozoda TURSUNBOYEVA



MUZ-HAYKALLAR FESTIVALI

Mana, yurtimizga orziqib kutilgan qish fasli ham kirib keldi. Qishning ham o'ziga yarasha fazilati, ziynati bor.

Ayniqsa, hamma yoqni oppoq qor qoplab, yaxmalaklarning billurdek tovlanishi kishini hayratga soladi. Har yili qish kelishi bilan dunyo mamlakatlarida qor yoki muzlardan turli haykallar yasash festivallari o'tkaziladi. Masalan, Xitoyning Xarbin shahrida bo'lib o'tgan muz va qordan yasalgan ulkan haykallarga bag'ishlangan festivalda dunyoning eng nomdor haykaltaroshlari ishtirok etib, o'z ijod namunalari namozir taqdim etishdi. 32-bor o'tkazilgan ushbu tanlovga 750 kvadrat metr hudud ajratilgan bo'lib, haykal va qorli saroylarni barpo etishga 330 ming kub metr muz sarflandi. Muz haykallar kechasi yanada chiroyli va tarovatli ko'rinishga ega bo'lishi uchun ular har xil rangdagi chiroqlar bilan bezatildi. Bu yerga turli mamlakatlardan 1000 dan ortiq sayyoh tashrif buyurdi. Kechasi ayniqsa, odamlar o'zini xuddi ertaklar olamiga tushib qolganidek his qilishdi.

Internet manbalari asosida Odina SAHOBIDDIN qizi tayyorladi

TANLOV IQTIDORLARNI SARALADI

Sport – salomatlik garovi. U ruhning tetikligi, tananing salomatligini ta'minlaydi. Shu bois ham sog'lom va barkamol avlod tarbiyasida sportning o'rni beqiyos.

Yaqinda poytaxtimizdagi «Qushbegi» sport majmuidagi stol tennisi bo'yicha «Sog'lom avlod uchun» kubogi uchun XIII – Respublika turniri ayni shu maqsadda tashkil etildi. Ushbu musobaqa «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari va Xalq ta'limi vazirliklari, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hamda O'zbekiston stol tennisi Federatsiyasi hamkorligida o'tkazildi. Unda respublikamizning barcha viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahridan jami 56 nafar 2004–2005-yillarda tug'ilgan o'smirlar juftlik va yakka tartibda o'zaro bellashdilar.

Ikki kun davom etgan ushbu musobaqaning o'g'il bolalar bahsida Samarqand viloyati vakili Shohruh Iskandarov 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Qizlar o'rtasida esa Toshkent viloyati vakilasi Marhabo Magdiyevaga teng keladigani topilmadi. 2-o'rinni Buxoro viloyati vakilasi Norjon G'iyosova, 3-o'rinni Toshkent shahridan Diana Polegayeva egallashdi. O'g'il bolalar o'rtasidagi juftliklar bahsida Nikita Panov va David Lutfullayevlar g'olib bo'lishgan bo'lsa, qizlar o'rtasida Jannatoy Madaliyeva hamda Norjon G'iyosovalar 1-o'ringa loyiq topildilar.

Turnir g'oliblari tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Jamoliddin ABDULLAYEV


THE CONJUNCTION (Bog'lovchi)

Gaplarni va gap bo'laklarini bir-biri bilan bog'lash uchun ishlatiladigan so'zlarga bog'lovchilar deyiladi.

For example: I have received a letter and a telegram.

The sun has set, but it is still light.

I can't do it now because I am very busy.



Bog'lovchilar shakliga ko'ra sodda va qo'shma bo'ladi:



Sodda bog'lovchilar: And – va, bilan, but – ammo, lekin, if – agar.

Qo'shma bog'lovchilar: As well as –gach, bilanoq va boshqalar.

Ba'zi bog'lovchilar ikkilangan bo'ladi, chunki ikki qismdan iborat bo'ladi: **both ... and ham ... ham, not only ... but, also faqat emas ... ham, either ... or yoki ... yo, neither ... nor, na ... na va boshqalar.**

WHITE WINTER

Poem

Winter windy, winter white,
We made snowman till tonight.
Creaky, smooth, shining snow,
I want to play it with my friends.

Winter came with cold weather,
Let's go mountains all together.
Take your cap, your coat and sledge,
Go, go playing and join the sledding.

Your teacher **DINORA**



WINTER SPORTS

What are you going to do this weekend?
I am going to go ...



Kumush TURG'UNOVA, the pupil of school №54 in Urta Chirchik district, Tashkent region

TWO GIFTS

Viktor Galyavkin



To Alesha's birthday his father gave him a pen with a gold feather. On the pen were engraved golden words: **Alesha's birthday from dad.**

Next day Alesha went to school with new pen. He was very proud, because nobody has such kind of pen in his class, a gold feather with a golden letters. His teacher forgot her pen at home and asked from her pupils for a little time. Alesha was the first handed to his teacher his treasure. That time he thought that his teacher will read its scripts and said: «Oh, what a beautiful handwriting» or «What a wonderful pen!» and of course his teacher felt

that his pen is real gold.

But his teacher didn't pay attention to his pen and said nothing. She asked from Alesha his homework but he didn't learn it. That time Mariya Nikolayevna gave bad mark to his diary and returned that pen.

Alesha looked perplexity to his golden pen and said:

– How can it be? It will be such!

– Alesha what about you? – Teacher didn't understand.

– About golden pen! – Said Alesha.

– Is it possible to give bad mark with a golden pen?

– So, today your knowledge is not gold, – said his teacher.

– Conclusion, my dad gave me to take a bad mark, – said Alesha. I knew, what kind of present this is.

Teacher smiled and said:

– The pen is your dad's present and your present for today you take yourself.

Translated by Mokhira YULDOSHEVA

FAMILY CROSSWORD

1. My mother's mother is my ...

6. My mother's daughter is my ...


2. My father and my mother are my ...

3. My brother's son is my ...

7. My brother is my mother's ...

4. My mother is my father's ...

5. My mother's husband is my ...



Painter: YOQUBBEK

Zarina KARIMOVA, teacher of school №8 in Kiziltepa district, Navoiy region

Yaxshi she'r ko'ngilni yoritib, kishiga quvonch bag'ishlaydi. Ijodkor o'z kashfiyotidan zavqlanadi.

Satrlarda barq urgan quyosh

Ichki kechinmalarini rang-tusini topib qog'ozga tushirgandan g'ururlanadi. She'r yurakning tub-tubidagi qiyosiz his-tuyg'ularning bebaho mahsulidir. Ijodkor bolaridek izlanuvchan bo'lishi kerak. Toki satrlarda uning sa'y-harakatlari jilolanib tursin. Shoshma-shosharli bilan qilingan ishning hosili totsiz bo'ladi. Elda «Yetti o'lchab bir kes», degan maqol bejiz aytilmagan. O'zining ijodiy dilmomalari bilan dillarga ilqlik baxsh etgan bir guruh o'quvchilarimizning nuri satrlarini saralab sizga havola etgimiz keldi. O'ylaymizki, ezgulikni e'zozlagan murg'ak qalb egalari satrlarida barq urgan quyosh sizning ham dilingizni nurafshon qilgay.

AXTAMQULI,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

ONAJONIM

Olam ichra yagonam,
Eng mehribon durdonam.
Jonajonim, mardonam,
Onajonim, onajon!

Farzand uchun quvongan,
Kelajakka ishongan.
Yuragida gul ungan,
Onajonim, onajon!

Fazilatxon TURSUNOVA,
Farg'ona viloyati,
Marg'ilon shahridagi
7-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

QALDIRG'UCH

Erkdan nishona bo'lib,
Nurli peshona bo'lib,
Uchib keldi qaldirg'och,
Ko'kka yozib keng quloch.

Baxt-iqbol olib keldi,
Istiqbol olib keldi,
Erksevar yuraklarga,
Bir hilol olib keldi.

Mohira AHMEDOVA,
poytaxtimizning
Yashnobod tumanidagi
244-umumta'lim makta-
bining 7-«E» sinf o'quvchisi

USTOZIM

Ustozimiz mehribon,
Ismidir Feruzaxon.
Bizni yaxshi ko'radi,
Tinmay bilim beradi.

A'lochimiz hammamiz,
Mehribon ustozimiz.
Vazifa bersa har dam,
Bajaramiz bo'lib jam.

Asliddin SAYFULLAYEV,
Sirdaryo viloyati,
Boyovut tumanidagi
27-umumta'lim makta-
bining 4-sinf o'quvchisi

KUCH BIRLIKDA

Maktabda Tohir, Zuhra,
Bahslashib qolishdi.
Kim epchil-u kim zukko,
Deya rosa olishdi.

Biri aytar: – Kuchliman,
Tirishqoqman sportda.
Biri der: – Bilimdonman,
A'lochiman har ishda.

So'ng tortishib, talashib,
Bir qarorga kelishdi.
Baravar qo'l ushlab,
– Kuch birlikda, – deyishdi.

Marjona AHMEDOVA,
Xorazm viloyati, Hazo-
rasp tumanidagi 2-umum-
ta'lim maktabining 8-«B»
sinf o'quvchisi

KO'RKAMDIRSAN BUNCHALAR!

Jon maktabim, maktabim,
Bag'ri daryo, o'ftobim.
Bilim olar joyimsan,
Ilm-u fanga boyimsan.

Ko'rkamdirsan bunchalar,
Bilim olar g'unchalar.
Seni dildan kuylayman,
Madhing bitib so'ylayman.

Doim nuring sochaver,
Issiq bag'ring ochaver.
Sen-la kamolga yetay,
Yayrab madhingni bitay!

Mohinur SOATMO'MINOVA,
Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on
tumanidagi 34-umumta'lim makta-
bining 4-«A» sinf o'quvchisi



QORBOBO

Qorbobo, oppoq bobo,
Sovg'alari ko'p bobo.
Mehringdan odamlarga,
Sovg'a qilgin ko'p, bobo.

Qorbobo, oppoq bobo,
Umri ko'p uzoq bobo.
Yuraklari oq bobo,
Har kelganda qoringdan,
Sovg'a qilgin, oq bobo.

Feruz YOQUBOVA,
Qarshi tumanidagi
Obid Sodiqov nomidagi
umumta'lim maktabining
5-sinf o'quvchisi

HUSNINGIZGA IZLAYMAN TIMSOL

Husningizni etay deb ta'rif,
Har soniya izlayman timsol.
So'zim g'arib, she'rilarim g'arib,
Mo'ltirayman go'yo gung misol.

Aylanmaydi tilim kalomga,
Tashbehlardan go'zalroqsiz siz.
Termilaman tilsiz qalamga,
Endi sizni sevaman –
So'zsiz!!!

Xosiyat ESHMONOVA,
Jizzax viloyati, Mirzacho'l tuma-
nidagi 5-umumta'lim maktabining
7-«V» sinf o'quvchisi



HUR O'LKAM

Hur o'lkam,
Nur o'lkam.
Tuproq'ing
Dur o'lkam.

Zafarli
Bayrog'ing.
Bog'-chaman
Har yog'ing.

Paxtaning
Koni – sen.
Sharqning dil,
Joni – sen.

O'g'lingman,
Bor kuchim.
Sarflayman
Sen uchun.

Bundan ham
Bo'l ko'rkam,
Shuhratga
To'l o'lkam.

Nomingni
Olib yod,
Yuraman
Doim shod.

Erkin QAMBAR KOSONSOY



Kosonsoy –
Tog'li joy.
Vodiyya
Ko'rk-chiroy.

Atrofi
Bog'-rog'lar.
Mehringni
Tez bog'lar.

Xo'p obod,
Qishlog'i,
Mazali
Pishlog'i.

Yoz kuni
Hay, hay, hay...
Xush oqib
Kuylar soy.

Kosonsoy –
Ko'rkam joy.
Moy, qatiq,
Sutga boy.

Bir ko'rsang
Sen uni,
Bo'lasan
Maftuni.

NABIRAMIZ RAYHONA

Mittigina Rayhona,
U yon-bu yon yuradi.
Yoqmay qolsak biz unga,
Labchasini buradi.

Goho oynaga qarab,
Qo'llarin belga tirab.
«G'ujurlashib» so'zlasak,
Tushunmay bo'lar xunob.

Yillar o'tib ulg'ayar,
Jajji nabirachamiz.
Har kunimiz shod o'tar,
Xursand qilar barchamiz.

Nazirjon SHERALIYEV,
Namangan viloyati,
Uchqo'rg'on tumani

ROSTGO'YLIK (Hikoya)

Biz yashab turgan ko'chaga yaqin joyda Anvar degan bola bor. U ota-onasining erkatoyi. Yaqinlari Anvar nima desa shuni muhayyo qilishadi. Ota-onasi unga har kuni maktabga ketayotganida tushlik uchun pul berishadi. Bir kuni Anvar Botir degan do'sti bilan oyl-pul berishadi. Bir kuni Anvar Botir degan do'sti bilan oyl-pul berishadi. Bir kuni Anvar Botir degan do'sti bilan oyl-pul berishadi. Bir kuni Anvar Botir degan do'sti bilan oyl-pul berishadi.

Bir kuni u qattiq kasal bo'lib qoldi. Yaqinlari Anvarni tezda kasalxonaga olib borishdi. Shifokor uning kasal-likni bir zayl och qolib yurish ekanligini aytdi. Ota-onasi hayron qolishdi. Anvar og'riq kuchayganidan qo'rqib yig'lab yubordi va uyidagilariga bo'lgan voqeaning barini aytib berdi. U qilgan xatosi uchun munosib jazolandi va hech qachon yolg'on gapirmaslikka ahd qildi.

Diyoza HABIBULLAYEVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tu-
manidagi 92-umumta'lim makta-
bining 4-sinf o'quvchisi

